

2018 yilning I choragida iqtisodiy islohotlarning borishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognoz ko'rsatkichlari

12.03.2018

2018 yilning I choragida mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagilarni tashkil etishi kutilmoqda: 2018 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'ati 104,8 foizni, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati 102,8 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish natura ko'rinishida o'sish sur'ati: un ishlab chiqarish 100,2 foizni, omixta yem 100,1 foizni, non va non mahsulotlari 114 foizni, makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 116,1 foizni tashkil etadi.


Hukumat dasturlariga muvofiq tizimda "Qoraqalpoqdonmahsulotlari" AJ tomonidan Turkiyaning "Erkan Makina" kompaniyasi texnologiyasi asosida kunlik quvvati 150 tonnalik tegirmon sexi modernizatsiya qilinib ishga tushirildi.

"Uchqo'rg'on don mahsulotlari", "Oxangaron don" va "Koson DMKK" korxonalarini tomonidan Rossiyaning "A-Injining" kompaniyasi texnologiyasi asosida baliqchilik, parrandachilik va chorvachilik xo'jaliklariga sifatli ozuqa yetkazib berish maqsadida 3ta estrudirlangan omixta yem ishlab chiqarish sexlari qurib ishga tushirildi.


"Dunyo-M", "Andijondonmahsulotlari" va "Samarqanddonmahsulotlari" korxonalaridagi mavjud eskirgan tegirmon sexlarini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish maqsadida Turkiya va Ukraina davlatlarining "Alapala" kompaniyasi va "Mogilyov-Podolskiy" zavodidan uskunalari keltirildi. Hozirda tegirmonlarda demontaj ishlari olib borilmoqda.

"Asakadonmahsulotlari" AJ tomonidan granulangan (ekstrudirlangan) omixta yem ishlab chiqarishni tashkil qilish maqsadida Turkiyaning "Erkan Makina" kompaniyasi tomonidan texnologik uskunalari jo'natilgan. Texnologik uskunalarning oxirgi qismi shu oyning 15-20 kunlari yetib kelishi ko'zda tutilgan. Omixta yem sexida korxonadan demontaj ishlari boshlangan. May oyi yakuniga qadar loyiha to'liq ishga tushirilishi rejalashtirilgan.


2014-2018 yillarda non va non mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2014-2018 yillarda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2014-2018 yillarda omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2018 yil birinchi choragida kutilayotgan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'sish sur'ati %
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	104,8
Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish	102,8
Un	100,2
Omuxta yem	100,1
Non va non mahsulotlari	114,0
Makaron mahsulotlari	116,1